

**SERQIRRA IJODKORNING MEROSIGA BIR NAZAR**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Sharq sivilizatsiyasi va tarix fakulteti antropologiya va etnologiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi Usanova Muxlisa  
[muxlisausanova03@gmail.com](mailto:muxlisausanova03@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Tarix ilmi cheksiz dengizdir. Ulkan dengiz sayohatchilaridan, dengizchilaridan biri Muhammadrizo Ogohiydir. Ogohiy Xiva xonligida Qo‘ngirotlar sulolasi davrida yashagan va ijod qilgan muarrixidan biri. Xiva tarixchilik mакtabida o‘z o‘rniga ega. Maqolada Ogohiy ijodiga nazar tashlandi.

**Kalit so‘zlar:** Ogohiy, muarrix, Xiva xonligi, rus bosqinchiligi davri, “Riyoz ud-davla”, “Zubdat ut-tavorix”, “Jom‘e ul-voqeoti Sultoniy”, “Gulshani davlat”, “Shohidi iqbal”, Muhammad Vorisning “Zubdat-ul hikoyot”, mirob, Ollaqulixon

**Abstract:** The science of history is an endless sea. Muhammadrizo Agohi is one of the great sea travelers and sailors. Agohi is one of the historians who lived and worked during the Kungirot dynasty in Khiva Khanate. Khiva has its place in the school of history. The article looked at Agohi's work.

**Key words:** Agoxi, historian, Khiva Khanate, period of Russian invasion, "Riyaz ud-Dawla", "Zubdat ut-Tawarikh", "Jom'e ul-vaeoti Sultani", "Gulshani State", "Shahidi Iqbal", "Zubdat-ul Hikayot" by Muhammad Waris, mirab, Allaqlukhan,

**Аннотация:** Наука истории – это бескрайнее море. Мухаммадрисо Агохи – один из великих морских путешественников и мореплавателей. Агохи – один из историков, живших и творивших во времена династии Кунгирот в Хивинском ханстве. Хива занимает свое место в школе истории. В статье рассматривались работы Огахи.

**Ключевые слова:** Агохи, историк, Хивинское ханство, период российского нашествия, «Рияз уд-Даула», «Зубдат ут-Таварих», «Джомье ул-вағеоти Султани», «Государство Гульшани», «Шахиди Иқбали», «Государство Гульшани», «Шахиди Иқбали». Зубдат-уль Хикаёт» Мухаммада Вариса, мираба Аллакулихана

Biz Ogohiy ijodiga nazar tashlar ekanmiz uni buyuk shoir, tarixnavis, yetuk tarjimon va davlat arbobi sifatida taniy boshlaymiz. Ogohiy ijodiga baho berishdan avval ulug bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Boburning Navoiy ijodiga uning shaxsiga bergen bahosi bilan, yani ko‘p va ho‘p, barakali ijod sohibi deya zamondoshini ko‘ra bilishi bizga Boburdan keyingi ijodkorlar orasida yaqin o‘tmishdoshimiz, merosi sermahsul bo‘lgan Ogohiyni ko‘rishimiz va uni Navoiydan keyingi ko‘p va xo‘p sher aytgan shoir sifatida qarashimizga sabab bo‘ladi. Uning qalami o‘tkir shoir, yirik tarixchi, mahoratlari tarjimon bo‘lganligini yirik hajmli merosi bilan anglashimiz muqarrar. Uning asarlari hajmi yigirma ming misrani tashkil etadi.

Asosan bitgan g‘azallariga Ogohiy tahallusini qo‘llaydi va bir g‘azalida shunday yozadi:

Ne tong ogoh bo‘lsa, Ogahiy, ishqing siridin kim,  
Onga behuda ermas osmondin bu laqab paydo<sup>1</sup>

Davr talabini, shohlar siyosatini, oddiy xalq hayotini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan Ogohiy tabiiyki u barcha voqeа va xodisalardan ogoh edi. U sakkiz hukmdor davri ko‘rgan. U hatto rus bosqinchilari bilan bog‘liq barcha jarayonlardan ham xabardor edi.

Hozirgi kunda uning asarlari olti jilddan iborat holda to‘plangan va ushbu nashrlar 1971-1980-yillar oraligida, yani qarib o‘n yil davomida nashrdan chiqarilgan<sup>2</sup>. Har jild albatta alohida ahamiyat kabs etadi. Ma’lumki, adabiyotimiz tarixida Ogohiy buyuk talant egasi bo‘lgan shoir sifatida tanib qolmay, mohir tarjimon sifatida ham shuhrat qozonadi. U yigirmaga yaqin asarlarni tarjima qildi. Ularning ichida “Ravzat-us safo”, “Tazkiran Muqumxoniy”, “Taboqati Akbarshoxiy” kabi, tarixiy-ilmiy, “Axloqiy Muxsiniy”, “Nasihatnomai Kaykovus”, kabi axloqiy-didaktik asarlar barobarida Sharq adabiyotining ulug‘ klassiklari Nizomiy, Sadiy, Amir Xisrav Dehlaviy, Jomiy va boshqalar yaratgan o‘lmas badiiy asarlar ham bor. Uning tarjima asarlari sonining yigiramaga yaqin ekanligi tarjimon sifatida ham barakali ijod etganidan bir darakdir. Tarjima asarlari esa qatoriga mumtoz san’at ijodkorlari Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Sadiy Sheroziy Abdurahmon Jomiy asarlarini kiritishimiz mumkin. Uning fors-tojik tili asar tarjima qilish darajasida bilishi va tarjimalarni she’riy qoliplarga sola bilishi ham uning ilm-fanga, xususan til o‘rganishga alohida e’tibor berishidandir. Tarixiy asarlarni tarjima qilganlini ham alohida eslab otish lozim. U Hindiston podshohlaridan Muhammadshoh Avrangzeb zamonida yashagan olim Muhammad Vorisning “Zubdat-ul hikoyot” nomli asarini fors tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Shoirning aksariyat tarjimalari fors tilidan tarjima qilingan edi. Bundan biz uning fors tilini ham mukkamal darajada bilganini ham bilib olishimiz mumkin, chunki tilni mukkamal bilmay turib undan asar tarjima qilish murakkab ishdir. Tarjima sohasida Ogohiy chinakam yangilik yaratuvchi bo‘lgan. Uning tarjimonlik qarashlari bizning davrimizning badiiy qarashlariga juda yaqin. O‘zbek adabiyoti bu vaqt mobaynida tojik, ozarbayjon, turkman va boshqa adabiyotlar bilan uzviy rivojlandi.

Ogohiy o‘z hayoti davomida Xiva xonlari Muhammad Rahimxon I (1806-1825), Olloqulixon (1825-1843), Rahimqulixon (1843-1845), Muhammad Aminxon (1845-1855), Abdullaxon (1855-1855), Qutlug‘murodxon (1855-1855), Sayid Muhammadxon (1855-1864), Muhammad Rahimxon II (1864-1874) davrlarida yashab ijod qilgan. Ogahiyning o‘zbek tilida yozilgan “Ta’viz ul-oshiqin” (“Oshiqlar tumorı”)

<sup>1</sup> “Ta’viz-ul oshiqin”, Ogohiy

<sup>2</sup> Ogohiy. Asarlar (birinchi jild). 6 jildlik, nashrga tayyorlovchi Karimov G‘. T.: 1971. Ogohiy. Asarlar (ikkinchi jild). 6 jildlik, nashrga tayyorlovchi Dolimov S. T.: 1971. Ogohiy. Asarlar (uchinchi jild). 6 jildlik, nashrga tayyorlovchi Karimov G‘. T.: 1974. Ogohiy. Asarlar (to‘rtinchi jild). 6 jildlik, nashrga tayyorlovchi Dolimov S. T.: 1977. Asarlar (beshinchi jild). 6 jildlik, nashrga tayyorlovchi Dolimov S. T.: 1978. Asarlar (oltinchi jild). 6 jildlik, nashrga tayyorlovchi Karimov G T.: 1980.

devoni mavjud bo‘lib, unda shoir yashagan muhitning amaldorlaridan qattiq shikoyat qilib yozgan she’rlarini ko’proq uchratamiz<sup>3</sup>.

Oddiy xalq orasida Firdavsiyning “Shohnoma”, Bedil she’riyati, Fuzuliyning g‘azallariga ko‘plab taxmislari va’zxonligini eshitish mumkin bo‘lgan - bularning bari o‘sha davr o‘zbek adabiyotining o‘ziga xos jihatlarini tashkil etgan. Ogahiy Sharq mumtoz ijodkorlarining 20 dan ziyod tarixiy va badiiy asarlarini (Sa’diyning “Guliston” asari shular jumlasidan) o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Uning tarixiy asari Bayoniy tomonidan davom ettirilgan.

Shoir va tarjimon tariflariga tarixchi, muarrix nomini qo‘sib qoyish Ogohiy ijodiga berilgan to‘g‘ri tarif boladi. XVIII asrdan XX asrgacha hukm surgan Xiva xonligining XIX asr davri tarixini yoritgan muarrixlardan biri bu Ogohiydir. U Xiva tarixchilik maktabi vakillaridandir. Bizga tarixdan ma’lumki, har bir davlat yoki sulola, alohida shaxs yoki shaharlar hususida bir qator asarlar, yoxud solnomalar bitiladi. Xonlik tarixi ham, uning hukmdorlari, amaldorlari, ijodkorlari haqida yetarlicha malumotlar yozib qoldirilgan, ammo ularning har biri alohida e’tibor berilib o‘rganilmagan. Xususan hozirgi kungacha Ogohiy ijodiga e’tibor anchagina sust bo‘lgan. Dastlabki vaqtarda asosan rus bosqinchilari tarafidan bosib olinishi ko‘zda tutilgan xalq madaniyati va siyosiy tuzumi xususidagi ma’lumotlarning o‘rganilishi tarixchi asarlarini tadqiq qilishga sabab bo‘ladi. Keyingi davrlarda sovet olimlari ham birmuncha Ogohiy ijodi bilan qiziqishib ko‘rishadi. Ayni hozirgi kunda esa Ogohiy ijodiga alohida e’tibor berilayotganligi, fan kishilari uchun tarixning yangi sahifalarini ochmoqda. Ogohiy sulola tarixi va o‘sha davrdagi oddiy xalq hayotini yoritib berish bilan birgalikda muhum davlat vazifalarida turganligini ham yaxshi bilamiz. U mirob sifatida nafaqat xon oilasiga, balki o‘z xalqiga ham xizmat qiladi. Bu vazifa lavozim egasi uchun naqadar mas’uliyatli vazifa ekanligini xonlik geografik joylashuvidan bilib olishimiz mumkin. Bu lavozimdagи kishi hukmdor uchun sodiq bolishi bilan birga, halol va mehnatsevar bo‘lishi kerak. Sirdaryo va Amudaryoning xonlik hayotidagi ahamiyati, aholining katta qismi dehqonchilik bilan shug‘ullanishi Ogohiy va u kabi meroblardan halol va mehnatsevarlikni talab qilganligi muqarrar. Uning o‘z vazifasiga loyiq xizmat qilganligi nafqat oddiy xalq tomonidan, hukmdorlar tarafidan ham o‘zgacha baho berilganligi uni davlat va jamiyat arbobi sifatida yuqoriga ko‘taradi.

<sup>3</sup> <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/519>